

VII. ISTE'MOL BOZORI



2022 yilning yanvar-sentabrida chakana savdo tovar aylanmasi 7 743,3 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 113,3 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 1 189,7 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 15,4 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 108,2 foizni tashkil etib, 2 603,2 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 33,6 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 3 950,3 mlrd. so'm yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2021 yilning shu davriga nisbatan 111,5 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 51,0 foizga teng bo'ldi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da
(2022 yil yanvar-sentabr)



2022 yilning yanvar-sentabrida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.


Davlat mulki 7 703,7 mlrd. so'mni yoki o'tgan 2021 yilning shu davriga nisbatan 99,9 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,1 foizni tashkil qildi.

Nodavlat mulki 39,1 mlrd. so'mni yoki o'tgan 2021 yilning shu davriga nisbatan 99,5 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,5 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga to'g'ri keldi va 26,3 foizni tashkil etdi, Zomin tumani 13,1 foizni, Sharof Rashidov tumani 15,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, Yangiobod tumani 0,9 foiz, Zafarobod tumani 1,5 foiz va Arnasoy tumani 1,9 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2022 yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm	2021 yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida	Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida
Jami	7 743,3	113,3	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	1 189,7	134,0	15,4
kichik tadbirkorlik	2 603,2	108,2	33,6
Yakka tartibdagi tadbirkorlek	2 652,5	109,8	34,3
Uyushmagan savdo	1 297,9	115,3	16,7




**2022 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning
chakana tovar aylanmasi**
(umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd. soʻm	2021 yil yanvar- sentabriga nisbatan foiz hisobida	ming soʻm	2021 yil yanvar- sentabriga nisbatan foiz hisobida
Jizzax viloyati	7 743,3	113,3	5 321,9	110,8
<i>shahar:</i>				
Jizzax	2 036,5	111,0	10 792,0	107,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	145,5	105,3	3 056,7	103,6
Baxmal	1 411,2	134,1	8 584,0	131,2
Gʻallaorol	532,4	107,6	2 951,0	105,3
Sharof Rashidov	1 190,0	110,2	5 109,3	108,2
Doʻstlik	256,4	108,9	3 764,8	107,2
Zomin	1 015,2	108,3	5 878,4	105,7
Zarbdor	269,1	108,9	2 950,3	106,3
Zafarobod	114,1	108,9	2 195,2	106,6
Mirzachoʻl	185,3	109,0	3 437,0	107,2
Paxtakor	284,2	107,8	3 639,4	105,3
Forish	233,1	108,7	2 433,6	107,1
Yangiobod	70,3	109,7	2 412,1	108,2

Viloyatda chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga oʻsish surati yuqori hududlar Baxmal (131,2 %), Sh Rashidov (108,7 %) va Doʻstlik (107,2 %) tumanlariga toʻgʻri keladigan.




2022 yil yanvar-sentabr oylarida, chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari
(ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, % da)



Viloyatning aksariyat hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Baxmal tumani (134,1 %), Sharof Rashidov tumani (110,2 %), Zomin tumanida (108,3 %), Forish tumanida (108,7 %), Jizzax shahri (111,0 %), Paxtakor tumanida (107,8 %), nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Arnasoy tumanida (105,3 %) va G'allarol tumanida (107,6 %) kuzatildi.




2022 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da



Hududlar bo'yicha olib qaralganida, kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hududlar Jizzax shahri (1 849,4 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (1 884,5 mlrd. soʻm), Zomin (929,1 mlrd. soʻm), G'allaorol (513,6 mlrd. soʻm) va Baxmal (538,2 mlrd. soʻm) tumanlari hisoblanadi.




Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi mlrd. soʻm, o'sish sur'ati, % da (2022 yil yanvar-sentabr)



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (76,7 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (28,8 mlrd. so'm), Zomin (11,5 mlrd so'm) hamda G'allaorol (9,6 mlrd. so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (2,2 mlrd. so'm), Arnasoy (1,0 mlrd. so'm) va Zafarobod (2,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi
(mln. so'm) (2022 yil yanvar-sentabr)



2022 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning ulgurji tovar aylanmasi

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo aylanmasi 1 944,4 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 107,4 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi 395,6 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,8 foizga kamaydi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 115,6 foizni tashkil etib, 1 548,8 mlrd. so'mga yetdi hamda umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 79,7 foizni tashkil qildi.




Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi
(2022 yilning yanvar-sentabr)

	<i>Hajmi, (mlrd. so‘m)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda</i>
Jizzax viloyati	1 944,4	100,0	107,4
<i>shahar:</i>			
Jizzax	997,0	51,3	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5,2	0,3	171,0
Baxmal	188,9	9,7	115,4
G‘allaorol	63,2	3,2	136,1
Sharof Rashidov	127,4	6,6	121,6
Do‘stlik	158,1	8,1	87,6
Zomin	174,1	9,0	100,6
Zarbdor	27,7	1,4	126,2
Zafarobod	14,6	0,7	123,5
Mirzacho‘l	6,5	0,3	150,8
Paxtakor	83,1	4,3	511,2
Forish	86,0	4,4	97,4
Yangiobod	12,6	0,7	151,4

Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surati yuqori bo‘lgan Paxtakor (511,2%), Arnasoy (171,0%) va Yangiobod (151,4%) tumanlariga to‘g‘i keladi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan 107,4 foizni tashkil etdi, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 79,7 foizni, hajmi esa 1 548,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (51,3 %) hisoblanadi. Shuningdek, Sharof Rashidov (8,1 %) va Zomin (9,0 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Yangiobod (0,7 %), Arnasoy (0,3 %), Mirzacho'l (0,3 %) hamda Zafarabod (0,7 %) tumanlari esa eng past ulushga ega.

Shundan yuqori xajimlarga ega bo'lgan Jizzax shahrida 997,0 mlrd. so'mni, qolganlari Baxmal 188,9 mlrd. so'mni, Zomin 174,1 mlrd. so'mni, Do'stlik 158,1 mlrd. so'mni hamda Sharof Rashidov 127,4 mlrd. so'mni tumanlarida tashkil qilgan.